Boshlang'ich sinf o'quvchilarining tafakkurini rivojlantirishda interfaol metodlarning ahamiyati	782
Xursanova Marjona Baxtiyor qizi	
Sun'iy intellekt – bo'lajak tarbiya fani o'qituvchilari ta'limini modernizatsiya qilish vositasi sifatida	785
Yoqubaliyeva Dilafruz Payzidin qizi	
Tibbiy pedagogika: kasbiy ta'limda sog'lom turmush tarzi shakllantirishning psixopedagogik asoslari.....	788
Ziyatov Muhammad Namazovich	
Интерактивное обучение в развитии личности и критического мышления студентов	792
Рысова Галия Байбулатовна	

Значение искусственного интеллекта в области педагогики на основе мультимедийных приложений	795
Begaliyev Fayzali Umaraliyevich	
Favqulodda vaziyatlarning oldini olishga qaratilgan tibbiy profilaktik ishlar	798
Mahmudov Otamurod Hoshimovich	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida haykaltaroshlik san'ati bilan korruptsiyaga qarshi boshqaruv mexanizmlarini shakllantirish	802
Toshpulatova Fotima Saydullayevna	
Tinglab tushunish kompetensiyasini rivojlantirishda yuzaga keladigan qiyinchiliklar va ularni bartaraf etish usullari	805
Abdulvohidov Turg'unali Abduqaxxor o'g'li	
Zamonaviy pedagogik jarayonlarda uzluksiz kasbiy rivojlanish va uning o'quvchilarning natijalariga ta'siri	808
Ahadova Mushtariybonu Akmal qizi	
Tibbiyot ta'limida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishning o'ziga xos xususiyatlari	811
Amonova Madina Furkatovna	
Matematika fanini o'qitishda fanlararo integratsiya.....	814
Arabbayeva Zamiraxon Tadjibayevna	
PISA 2025 tadqiqotlariga doir tajriba sinov ishlari (O'zbekiston misolida).....	817
Doniyorov Muxiddin Normamatovich	
Maktabgacha ta'limning rivojlanish markazlarida ta'lim-tarbiya jarayonida o'yinlardan foydalanish va tahlil qilish.....	820
Eshmuratova Gauxar Maxsudovna	
Ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etish	824
Matjanova Gulzada Annabayevna	
Al-Xorazmiy asarlari vositasida talabalarda analitik fikrlashni rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari	828
Qaxxorova Shaxnoza Abduvasit qizi	
Xalq og'zaki ijodi vositasida boshlang'ich sinf o'quvchilarida mehnat tarbiyasini shakllantirish	832
Rahmonova Zamiraxon Yakubovna	
Jonli tabiat burchagini tashkil etish metodikasi.....	835
Yaylovboyeva Maftuna Lochinbek qizi	
Maktabga tayyorlov yoshidagi bolalarda raqamli intellekt (DQ) va divergent fikrlash ko'nikmalarini shakllantirish.....	838
Yusupova Xabiba Iriskulovna, Nazarmatova Dilshoda Umarali qizi, Xusanova Dilraboixon Botiraliyevna	
Integratsiyalashgan ta'lim jarayonida yaratiladigan metodikalar va loyiha ishlari.....	843
Ergasheva Mahbuba	
Инновационные педагогические подходы в системе образования и их эффективность	846
Уринбаев Исроилжон Кадиrhoнович	
Pedagogik faoliyatda kasbiy stress va uni keltirib chiqaruvchi omillar.....	851
Boymirzayeva Nafisaxon Baxodir qizi	
Talabalarda milliy tarbiya va axloqiy immunitet tushunchalarini rivojlantirishning milliy-tarixiy kontekstual jihatlari	855
Rasulov Baxtiyor Maxmudjonovich, Abdullayeva Arofatxon Abduvaxobovna	
TRIZ texnologiyasi – uchinchi renessans poydevori	860
Yusupova Gulshiraxon Zinatdinovna	
Yoshlar mafkurasini shakllantirishda hozirgi zamon ijtimoiy tarmoq va raqamli platformalarning o'rni.....	865
Xonimov Sharofiddin Bahodirovich	
O'zbek tilini o'qitishda raqamli ta'lim resurslarining o'rni va xususiyatlari.....	870
Ashurbayeva Rukiya Kaxxarovna	
Xiva xonligining tashqi savdo aloqalari tarixidan	874
Abduraimova Charos Nodir qizi	
Maktabgacha ta'lim tashkiloti direktorlarini boshqaruv madaniyatini shakllantirish omillari.....	878
Abduraxmonova Xurshida G'ofurovna	
Gandbol sport turini umumiy o'rta ta'lim maktablarida rivojlantirish.....	881
Ahmadjonov Dilmurod Davronjon o'g'li, Abduraxmonov Saydillo Xakimovich	
PIRLS xalqaro tadqiqotida matn, topshiriqlar va baholash mezonlari	884
Amonova Aziza Saydulloyevna	



Tibbiyot ta'limida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishning o'ziga xos xususiyatlari	888
Amonova Madina Furkatovna	
Morfonologiya va uni umumiy ta'lim tizimida o'qitish	891
Asatullayeva Dilnavoz Jondullayevna	
Biologiya darslarida lokal darajadagi texnologiyalardan foydalanish metodikasi	894
Azimov Ibragimjon Toshpo'latovich, Mirzaboev Timur Bisenboy o'g'li, Toshpo'latova Nigina Ibrohimjon qizi	
Jismoniy tarbiya mashg'ulotlarining shakllari va umumiy tuzilishi	898
B. R. Xudoyberdiyev	
Cognitive Justification of Humor in Modern Linguistics	901
Bektoshev Mubashirkhon Odilbek Ugli	
Maktabgacha yoshdagi bolalarning ijodiy qobiliyatlarini innovatsion yondashuv asosida rivojlantirish	905
Botirova Lobar Kamolovna	
Toshkent viloyatida rekreasion faoliyat rivojlanishining asosiy muammolari	910
Djurayeva Lobar Vaxitovna	
Didactic Features of Using E-Portfolios in Continuing Professional Development of Teachers	915
Erkaboyeva Saodathon	
O'quvchilar xulqida yuzaga keladigan salbiy o'zgarishlarning korreksiyalashga xizmat qiladigan manbalar	918
F. A. Choriyeva	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida chet tilida lug'at boyligini oshirishning samarali usullari	921
G'ulomjonova Mubdi'ma G'ayratjon qizi	
Kitobxon badiiy adabiyotni qanday anglaydi	924
Hamdamova Dilshoda Rustamjon qizi	
Zamonaviy ta'limda talabalarda ma'naviy qadriyatlarni rivojlantirishning pedagogik asoslari	928
Ibragimova Dilnoza Rashid qizi	
The Pedagogical Role of the Community in Promoting Abilities of Students	931
Isabayeva Dilfuza Komiljonovna	
Ta'lim sifatini oliy ta'lim tashkilotlarida yaxshilashda til bilishning o'rni	934
Isaqulova Baxtigul Xo'jamovna	
Madaniyatlararo muloqot kompetensiyasini rivojlantirishda ingliz tili darslarida interaktiv media vositalarining ta'siri	938
Ismoilova Zarifa Abduqaxxorovna	
O'quvchilarda tadqiqotchilik ko'nikmalarini rivojlantirishda xalqaro baholash dasturlaridan foydalanish metodikasi	942
Jabborova Shahodat Ibrohim qizi	
Boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarida deontologik qadriyatlar va professional etikani rivojlantirish	945
Kalandarova Fazilat Toxirovna	
Voleybolda maxsus chidamlilikni rivojlantirishning umumiy tushunchalari	948
Karimova Gulhayo Botirjon qizi	
The Portrait of the Image of Manfred in the Translation of J.G. Byron's Poem "Manfred"	953
Kurbonov Parda Akhmedovich	
Suv aralashmasi temperaturasi aniqlash	958
Mamatova Go'zaloy Jo'ramirzayevna, Mashrabboyeva Mubina Bobomurod qizi, Abdurahmonova Gulasal Avazbek qizi	
Yosh bokschilarning texnik-taktik harakatlarini takomillashtirish yo'llari	961
Mamatqulov Xusanboy Baxtiyor o'g'li	
Maktab direktorlarini qo'llab-quvvatlashda asosiy ustun amaliyotlar va O'zbekiston ta'lim tizimida ularni qo'llash imkoniyatlari	965
Mamura Tadjibayeva	
Adabiy ta'limda scamper metodining qo'llanilishi	969
Marjona Toshpulatova	
Maktabgacha ta'limda tayanch kompetensiyalarni shakllantirishda matematika va savod asoslarining didaktik yechimlari	974
Mingboyeva Guldorxon Maxmudovna	
Umumta'lim maktablarida inklyuziv ta'limni joriy etishning dolzarb muammolari va mavjud imkoniyatlari ..	977
Mo'minova Qunduz Xolmamat qizi	
"Jasper Jones" as New Life Given to The Novel "To Kill a Mockingbird"	982
Nargiza Akhrorova	

Sun'iy intellekt asosida matematik masalalarni yechish algoritmlari	985
<i>Oqnazarov To'liqin Jalilovich, Jo'rayev Mardon</i>	
Matematika darslarida kombinatorika elementlari va mantiqiy masalalar yechishga o'rgatish metodikasi ..	990
<i>Panjiyeva Shahlo Zulfikar qizi</i>	
Bo'lajak xorijiy til o'qituvchilari lisoniy-muloqot kompetentligini rivojlantirishga qo'yiladigan didaktik talablar.....	993
<i>Raximova Charosxon Baxromjon qizi</i>	
Kurash texnikasi va taktikasini bolalarga o'rgatish yo'llari	996
<i>Raxmonov Dilmurod Nusratovich</i>	
Pedagogical Technologies in Modern Education: Trends and Applications.....	999
<i>Salimova Bakhora Khurbanovna</i>	
Global ta'lim makonida milliy tarbiyani rivojlantirish istiqbollari.....	1003
<i>Sanaqulov Sardor Istamqulovich</i>	
Boshlang'ich sinf ona tili darslarida so'z turkumlari mavzusini o'rgatishda qiziqarli o'yinlardan foydalanish.....	1006
<i>Shomurotova Sevinchoy San'at qizi</i>	
Kredit-modul tizimida texnologik fanlar o'qituvchilarini tayyorlashda raqamli avtomatlashtirilgan o'quv modullari yaratish imkoniyatlari	1009
<i>Turdikulova Sevara Abdumominovna</i>	
Tyutorlik faoliyatining zamonaviy ta'lim tizimidagi ahamiyati va murabbiylik an'analarning uzviyligi	1012
<i>Ubaydullayev Zuxriddin Botirovich</i>	
O'zbekistonda til ta'limida innovatsiyalar: sun'iy intellekt va raqamli texnologiyalar yondashuvi	1016
<i>Umarova Iroda Shavkatjon qizi</i>	
Pedagogical Situation of Developing Students' Critical Thinking	1020
<i>Usmonova Oydin Sherali kizi</i>	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida pedagogik texnikani rivojlantirishning didaktik omillari	1024
<i>Xolmo'minova Bahora Abduljalolovna</i>	
Bo'lajak chet tili o'qituvchilarining ijodiy kompetensiyasini rivojlantirishga qo'yiladigan didaktik tamoyillar ..	1027
<i>Xurshidjon Raximov Xursandjon o'g'li</i>	
O'zbekistonda steam ta'lim tizimini tatbiq etishning nazariy aspektlari	1031
<i>Yaxshiboyeva Sitara Toshpulat qizi</i>	
Oliy ta'limda talabalar ijodiy salohiyatini shakllantirishda pedagogik innovatsiyalarning o'rni va imkoniyatlari	1034
<i>Yuldashev Abdurauf Ro'zmatjonovich</i>	
Talabalarda nutqiy faoliyatni rivojlantirishga doir olib borilayotgan ishlarning joriy holati	1037
<i>Yusufova Gulhayo Nosirxon qizi</i>	
Ingliz tili fanini o'qitishda (PBL) loyiha va muammoga asoslangan metodika: O'zbekiston tajribasi va xalqaro amaliyot	1040
<i>Zarina Tasheva Djumayevna</i>	
Актуальные проблемы изучения русского языка	1043
<i>Абдуллаева Нигора Курбановна</i>	
Применение цифровых средств обучения в курсе "Окружающий мир" для изучения народной экологии в начальной школе	1046
<i>Бобаева Зиёдахон Махамаджон кизи</i>	
Tasviriy san'at darslarini o'qitishga innovatsion yondashuv.....	1049
<i>N. P. Kaipov</i>	
Важность разработки стратегических программ развития страны.....	1052
<i>Каримова Нуржохон Олим кизи</i>	
Pedagog kadrlar kasbiy kompetentligi diagnostikasining kvalimetrik texnologiyalari	1056
<i>Mirsoliyeva Muhabbatxon To'xtasinovna</i>	
Анализ элективных курсов по информатике в зарубежных странах и их аналогов в системе образования Узбекистана	1060
<i>Урынбаева Азада Бахадировна</i>	
Multimedia texnologiyalarining ta'lim tizimiga integratsiyasi.....	1064
<i>Raximova Dilfuza Abduraxmonovna</i>	

PEDAGOG KADRLAR KASBIY KOMPETENTLIGI DIAGNOSTIKASINING KVALIMETRIK TEKNOLOGIYALARI

Mirsoliyeva Muhabbatxon To'xtasinovna

Oliy ta'lim, fan va innovatsilar vazirligi huzuridagi
Talaba va o'quvchilarning ijtimoiy faolligini oshirish markazi
bo'lim boshlig'i, Pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent

Abstract: Ushbu maqolada raqamli transformatsiya va ta'lim tizimidagi innovatsion o'zgarishlar sharoitida pedagog kadrlarning kasbiy kompetentligini baholashga qaratilgan kvalimetrik texnologiyalarning o'rnini tahlil qilinadi. Muallif assessment texnologiyalarining mohiyati, ularning turlari va amaliyotga joriy etish mexanizmlarini yoritib, ularni pedagog kadrlarning kompetensiyalarini xolis va samarali baholash vositasi sifatida ko'rib chiqadi. Maqolada pedagog kadrlar faoliyatini aniq ko'rsatkichlar va indikatorlar asosida baholash, ularning shaxsiy va kasbiy rivojlanishiga ko'maklashuvchi yangi strategiyalar asosidagi yondashuvlar taqdim etiladi.

Key words: pedagog kadrlar, kasbiy kompetentlik, kompetensiyalar kvalimetriyasi, assessment markazlari, innovatsion ta'lim, baholash texnologiyalari, mutaxassislar diagnostikasi, kasbiy rivojlanish, kreativ qobiliyatlar, ta'lim sifatini baholash.

Annotatsiya: This article analyzes the qualimetric technologies for diagnosing the professional competence of teaching staff in the context of digital transformation and innovative development in the education system. The author explores the essence, types, and implementation mechanisms of assessment technologies, emphasizing their role as an effective and objective tool for evaluating educators' competencies. Special attention is given to building assessment strategies based on measurable indicators and developing a personalized, competence-oriented educational environment.

Kalit so'zlar: teaching staff, professional competence, competence qualimetry, assessment centers, innovative education, evaluation technologies, specialist diagnostics, professional development, creative abilities, quality assessment in education.

Аннотация: В данной статье анализируются квалиметрические технологии диагностики профессиональной компетентности педагогических кадров в условиях цифровой трансформации и инновационного развития системы образования. Автор раскрывает сущность технологий ассессмента, их виды и механизмы внедрения в практику, подчёркивая значимость этих технологий как инструмента объективной и эффективной оценки компетентностей педагогов. Отдельное внимание уделено созданию стратегии оценки и развития кадров на основе конкретных индикаторов, а также формированию персонализированной образовательной среды.

Ключевые слова: педагогические кадры, профессиональная компетентность, квалиметрия компетенций, ассесмент-центры, инновационное образование, технологии оценки, диагностика специалистов, профессиональное развитие, креативные способности, оценка качества образования.

KIRISH

Tezkor o'zgaruvchan mehnat bozorining shart-sharoitlari ish beruvchilarning mutaxassislarning kasbiy tayyorgarlik darajasi va uning mazmuniga bo'lgan talablariga ham o'z ta'sirini ko'rsatmoqda. Bugungi kunda kasbiy faoliyat samaradorligini ta'minlovchi asosiy ko'rsatkichlar sifatida faqat bilim, ma'lumotlilik darajasi yoki tajriba emas, balki ularning o'zaro uyg'unlashuvi asosida shakllangan mutaxassisning kasbiy va shaxsiy kompetentligi belgilanmoqda.

Shu jumladan, barcha sohalarida bo'lgani kabi, pedagogikadagi zamonaviy yondashuvlar mazmunida ham o'qituvchining yangi kompetensiyalar va ko'nikmalarni o'zlashtirishi, "o'z paradigmasini o'zgartirishi", metakognitiv va kreativ qobiliyatlarini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bu o'zgarishlarni amalga oshirish esa, o'z navbatida, pedagog kadrlardan yuqori kasbiy tayyorgarlik va kompetentlikka ega bo'lishni talab etmoqda. Darhaqiqat, pedagog kadrlarning uzluksiz kasbiy rivojlanishini ta'minlovchi yangi ta'limiy strategiyalarni belgilash, ilg'or xorijiy tajribalarni o'rganish asosida kasbiy kompetentlikni rivojlantirishning samarali yo'llari va shakllarini amaliyotga keng joriy etish, shuningdek, kompetentlikning miqdoriy va sifat darajasini tahlil qilish va baholashga xizmat qiluvchi innovatsion metodlarni ishlab chiqish ta'lim sifatini oshirishga xizmat qiladi.



MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Bugungi kunda pedagogik tadqiqotlarda kasbiy kompetentlikni baholash metodlari va strategiyalarini o'rganishga yo'naltirilgan qator ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Mazkur masalalarning metodologik jihatlarini tahlil etar ekanmiz, tadqiqotchilar I.A. Zimnyaya, A.K. Markova, A. Verbitskiy, T. Bazarov, N. Muslimov, J. Tolipova [8;9;11]larning ilmiy izlanishlarida pedagog kadrlarning kasbiy kompetentligini baholashda ularning tayanch-kasbiy hamda maxsus bilimlariga alohida e'tibor qaratish masalasi yoritiladi.

U.I. Inoyatovning ta'kidlashicha, ta'lim muassasasi professor-o'qituvchilari va rahbar xodimlarining bilimi, ko'nikma va malakalari darajasini baholash mezonida baholashning alohida ko'rsatkichlari sifatida quyidagilarga e'tibor qaratiladi: kvalifikatsiya – rahbarning pedagogika sohasidagi bilimi, ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etish, ta'lim-tarbiya jarayoni ishtirokchilari hamda xodimlarning pedagogik va psixologik xususiyatlari, mutaxassisligi hamda kasbiga nisbatan qo'yilayotgan ijtimoiy me'yor va talablarni bilishi, shuningdek, bo'lajak mutaxassis kvalifikatsiyasi hamda ta'lim muassasasini boshqarishning nazariy asoslari yo'nalishida tushunchalarga ega bo'lishi; kasbiy mahorat – mavjud yagona pedagogik talablar asosida, pedagogik xodimlar hamda talabalarning imkoniyatlarini o'rganib, ularni hisobga olgan holda jamoani shakllantirish, uning faoliyatini muvofiqlashtirish, jamoa oldida turgan vazifalarni bajarishda mavjud muammolar va masalalarni hal etish yo'llarini ko'rsatish, jamoatchilik tashkilotlarini tuzish va ularni boshqarish ishlariga jalb etish, o'zaro munosabatlarni muvofiqlashtirish asosida pedagogik xodimlar bilan ta'lim oluvchilarning hamkorlikdagi faoliyatini tashkil etish, tanqid va o'z-o'zini tanqid zaruriyatini hisobga olgan holda ularning hatti-harakatlarini muvofiqlashtirish, tartib-intizomni va uyushqoqlikni saqlash, boshqaruv faoliyatining maqsad va vazifalarini belgilash, jamoa faoliyati hamda pedagog xodimlarning faoliyatini baholash mezonlarini ishlab chiqish yo'nalishlaridagi ijtimoiy-psixologik ko'nikma va malakalardan iborat; faoliyat unumdorligi – ta'lim oluvchilarning davlat ta'lim standartlari asosidagi o'zlashtirish ko'rsatkichlaridir [4]. Pedagog kadrlar kasbiy rivojlanishini ta'minlovchi yangi ta'limiy strategiyalarni belgilashda kompetensiyalar kvalimetriyasi muhim vosita bo'lib xizmat qiladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Kompetensiyalar kvalimetriyasi – o'zlashtirilgan kasbiy bilim, ko'nikma va malaka asosida kasbiy kompetentlikning rivojlanganlik darajasi va sifat samaradorligini o'lchash sohasi hisoblanadi.

Innovatsion menejment yo'nalishidagi tadqiqotlarda kadrlar kasbiy kompetentligini baholashning kvalimetrik texnologiyalaridan biri sifatida assessment markazlari keng tadqiq etilmoqda. Assessment texnologiyalari – diagnostik metodlar (portfel, kasbiy vaziyatlar tahlili, reproduktiv testlar, taqdimot, kasbiy yo'nalishdagi intervyu, suhbat kabi ijodiy topshiriqlar) majmuasi bo'lib, rahbar va pedagog kadrlarning kasbiy faoliyat doirasidagi yutuq va kamchiliklarini tizimli o'rganish hamda tahlil etish asosida ularning mazkur faoliyat sohasidagi kompetentlik darajasini baholashga yo'naltiriladi.

So'nggi yillarda ta'lim amaliyotida keng qo'llanila boshlagan assessment markazlari pedagog kadrlar kasbiy kompetentligini baholashning innovatsion texnologiyalaridan biri sifatida baholanmoqda.

Assessment markazlari (assessment centre – mutaxassislarni baholash markazlari) guruhiiy baholashning samarali shakli bo'lib, keys, reproduktiv testlar, taqdimot, kasbiy yo'nalishdagi intervyu, suhbat kabi ijodiy topshiriqlar yig'indisi asosida kadrlarning u yoki bu yo'nalishdagi amaliy tayyorgarlik darajasini baholashga xizmat qiladi. Dastlabki assessment markazlari 1942-yilda ishlab chiqarish va biznes sohasida mutaxassislarning salohiyatini baholash va saralash maqsadida qo'llanilgan. Bu jarayonlarda asosiy e'tibor mutaxassisning muloqotchanligi, kreativligi, stressga chidamliligi, jamoada ishlay olishi kabi ijtimoiy xulq-atvor ko'nikmalarini (soft skills) baholashga qaratilgan. Shu nuqtai-nazardan, tadqiqotchilar M.Armstrong, M.Smit, J.E. Hunter, R. Hunter [10]larning ilmiy izlanishlarida suhbat, tavsifnoma, yo'llanma, grafologiya, biografik o'rganish kabi metodlardan farqli ravishda assessment markazlari natijalarining validiligi yuqori baholangan.

Darhaqiqat, assessment texnologiyalari – bu diagnostik metodlar majmuasi bo'lib, ishtirokchilarning aniq bir kasbiy faoliyat doirasidagi yutuq va kamchiliklarini tizimli o'rganish hamda tahlil etish asosida ularning mazkur faoliyat sohasidagi kompetentlik darajasini baholashga yo'naltiriladi. Bu jarayonlarda baholanayotgan ishtirokchi – ya'ni mutaxassis faoliyati maxsus tayyorgarlikdan o'tgan ekspert-assessorlar tomonidan psixodiagnostik testlar, individual va guruhiiy topshiriqlar, intervyu, keys-stadi, ijodiy topshiriqlar, portfel, davra stoli, SWOT-tahlil, taqdimotlar kabi bir nechta diagnostik shakl, metod va vositalarni qo'llash orqali har tomonlama o'rganiladi, bu esa natijalardagi validlikni ta'minlashga yordam beradi.

Assessment texnologiyasining mohiyati baholanayotgan mutaxassisning kasbiy kompetentligini namoyon qiluvchi, shuningdek nostandart vaziyatlardagi faoliyatini modellashtirish imkonini beruvchi topshiriqlar va vaziyatlarni yaratish orqali belgilanadi. Shu orqali mutaxassisning ayni vaqtda faoliyat olib borayotgan sohadagi layoqatlilik darajasi tashhis qilinadi, uning kasbiy imkoniyatlari tahlil etiladi va rivojlantirish yo'llari belgilanadi.



Mazkur vazifalardan kelib chiqqan holda assessment texnologiyasining quyidagi turlarini ajratib ko'rsatish mumkin:

- o'tkazish shakliga ko'ra, baholanuvchilar sonidan kelib chiqqan holda – individual yoki jamoaviy assessmentlar;
- maqsadga ko'ra – an'anaviy assessment, ya'ni mutaxassisning kompetentlik darajasini o'rganish;
- rivojlantiruvchi assessment, ya'ni mutaxassisning kelgusidagi kasbiy rivojlanishi uchun yordam beruvchi asosiy kompetensiyalarni aniqlash;
- strategik assessment – tashkiliy o'zgarishlar, yangi g'oyalar integratsiyasi, innovatsion jarayonlarda samarali ishlash imkonini beruvchi yetakchi kompetensiyalarni aniqlash;
- o'z-o'zini anglashga yo'naltirilgan assessment (self-assessment), ya'ni mutaxassisning kuchli tomonlarini baholash hamda kasbiy rivojlanish jarayonidagi ehtiyojlarini aniqlashga yo'naltirilgan.

Shunday ekan, assessment markazlarida xodimlar kompetentligini baholashga yo'naltirilgan jarayonlarni tashkil etish va o'tkazishda yuqorida keltirilgan tamoyillarga muvofiq, kompetensiyalarga yo'naltirilgan, moslashuvchan va erkin-ijodiy muhitning yaratilishi uning natijadorligini ta'minlashda muhim omillardan sanaladi. Ma'lumki, zamonaviy menejmentda assessment markazlari xizmatlaridan foydalanish korxona, tashkilot yoki muassasaning kadrlar menejmenti borasidagi strategiyalarini hamda tashkiliy o'zgarishlarni belgilashda alohida o'rin tutadi.

Bunda assessment markazlari imkoniyatlaridan foydalanish muassasa uchun:

- kadrlarning shaxsiy salohiyatini ish sharoitlaridan ta'sirlanmagan, rahbarlarning mulohazalaridan xoli holatlarda baholash;
- barcha ishtirokchilar faoliyatiga tegishli kompetensiyalarni ularning vakolatlari nuqtayi nazaridan kelib chiqqan holda baholash;
- oddiy va kundalik ish muhitidan chiqib, nostandart vaziyatlarni yaratish orqali har bir ishtirokchining qobiliyati va kasbiy tayyorgarligining kuchli va zaif tomonlarini aniqlash;
- yuqori salohiyatga ega bo'lgan kadrlar zaxirasini shakllantirish va ularni maqsadli tayyorlash imkoniyatlarini yaratadi.

Fikrimizcha, xodimlar uchun assessment markazlari xizmatlaridan foydalanish o'z faoliyati va salohiyatining SWOT-tahlilini amalga oshirish, kelgusi kasbiy rejalari va hayotiy maqsadlari haqida empirik ma'lumotlarga asoslanib qaror qabul qilish, shuningdek o'z-o'zini rivojlantirish yo'nalishlarini belgilab olishiga yordam beradi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Empirik ma'lumotlar tahlilidan ko'rinishicha, buyurtmachilarning baholash jarayonlaridan ko'zlangan maqsadlaridan kelib chiqqan holda assessment metodlari va turlari belgilanadi. Masalan, yangi kadrlarni ishga qabul qilishda baholash jarayonlari asosan istalgan xodimning qiyofasini aniqlashga yo'naltirilsa, xodimlarning salohiyatini baholashda asosan ularning faoliyatidagi samaradorlik, layoqatlilik va iqtidor darajalari o'rganiladi. Xodimlarni shaxsiy va kasbiy rivojlantirishga yo'naltirilgan maqsadlarda esa assessment markazlari ko'proq ularning individual ehtiyojlari, maxsus-kasbiy kompetensiyalarining rivojlanganlik holati tahliliga qaratiladi.

Ta'limdagi assessment markazlari amaliy kvalimetriyaning yangi yo'nalishlaridan biri bo'lib, yuqorida keltirilgan jihatlariga qo'shimcha ravishda pedagog kadrlarning ta'limdagi innovatsion o'zgarishlarga tayyorgarligi, aniq lavozim yoki kasbiy vazifalarni bajarishga bo'lgan nazariy va amaliy tayyorgarligi, shaxsiy sifatlarini baholashga yo'naltiriladi. Bunda asosiy e'tibor pedagog kadrlarning real va autentik muhitda o'z kasbiy ko'nikma va malakalarini namoyon etishiga qaratiladi. Ma'lumki, assessment jarayonlarida "nimani" baholash va "qanday" baholash degan savollar har doim diqqat markazida bo'ladi. Boshqacha aytganda, maqsad aniq bo'lmas ekan, vositalar o'zini oqlamaydi. Ya'ni bunda pedagog kadrlarning o'zlashtirilgan bilim va ko'nikmalaridan aniq kasbiy vazifalarni hal etishda samarali foydalanishi, nostandart vaziyatlarda to'g'ri qarorlar qabul qilishi, kreativlik bilan bog'liq faoliyat va xulq-atvor darajasini baholash ko'rsatiladi.

Darhaqiqat, assessment texnologiyalari asosida oliy ta'lim muassasalari pedagog kadrlari kasbiy kompetentligini baholash:

- pedagog kadrlar kasbiy kompetentligini diagnostika qilish va baholashning yangi metodlarini rivojlanishiga;
- metakompetensiyalar va yangi ma'lumotlarning yaratilishi va almashinishiga;



- pedagog kadrlar o'rtasidagi kommunikatsiyaning samarali usullarini yuzaga kelishiga;
- individuallashtirilgan va kompetensiyalarga yo'naltirilgan muhitning shakllanishiga;
- pedagog kadrlar kasbiy kompetentligini rivojlantirishning samarali shakllari (formal, informal va noformal ta'lim) amaliyotga tatbiq etilishiga;
- oliy ta'lim muassasasi uchun pedagog kadrlar faoliyatini aniq natija va indikatorlar asosida baholash va rag'batlantirish mexanizmlarini takomillashtirishga olib keladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa sifatida aytish mumkinki, oliy ta'lim muassasalari pedagog kadrlarining kasbiy kompetentligi kvalimetriyasi va sifat nazorati kasbiy kompetentlikni rivojlantirishning samarali mexanizmlarini belgilashga asos bo'ladi. Bunda esa quyidagi jihatlarga e'tibor qaratish maqsadga muvofiq sanaladi:

- oliy ta'lim muassasalari pedagog kadrlarining kasbiy kompetentligini rivojlantirish jarayonlarining uzluksizligi va mehnat bozori talablariga mosligi;
- pedagog kadrlarning mustaqil o'zini-o'zi shaxsiy va kasbiy rivojlantirish motivlarini rag'batlantirish hamda monitoringni olib borish;
- kvalimetrik tahlil natijalari asosida oliy ta'lim muassasalari pedagog kadrlarining kasbiy kompetensiyalarini uzluksiz rivojlantirib, yangilanib borish mexanizmlarini takomillashtirish;
- kasbiy ehtiyojlarni qanoatlantirishga qaratilgan mustaqil o'zini-o'zi kasbiy rivojlantirish jarayonlarini tashkil etish va mustaqil faoliyat tarkibini aniqlash;
- ta'lim, fan va ishlab chiqarish integratsiyasini ta'minlash asosida pedagog kadrlarning kasbiy tayyorgarligi mazmuni va sifatiga qo'yiladigan kompetensiyaviy talablarni takomillashtirib borish.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. "O'zbekiston-2030" strategiyasi to'g'risida. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 11.09.2023 yildagi PF-158-son.
2. Базаров Т.Ю., Ермина Б.Е. Управление персоналом: Учебник для вузов / Под ред. Т.Ю. Базарова, Б.Л. Еремина. – 2-е изд., перераб. и доп. – М.: ЮНИТИ, 2002. – 560 с.
3. Друкер Питер Ф. Задачи менеджмента в XXI веке / Пер. с англ. – М.: Издательский дом "Вильямс", 2004. – 272 с.
4. Иноятлов У.И. Теоретические и организационно-методические основы управления контроля качества образования в профессиональном колледже: Дисс. ... док. пед. наук. – Т.: 2003. – 327 с.
5. Кудрявцева Е.И. Компетенция и менеджмент: компетенции в менеджменте, компетенции менеджеров, менеджмент компетенции. Санкт-Петербург, 2012. – 340 с.
6. Kleinmann M., Ingold P.V. Toward a Better Understanding of Assessment Centers: A Conceptual Review. Annual Review of Organizational Psychology and Organizational Behavior, Vol. 6 (2019), pp. 349–372.
7. Мирсолиева М.Т., Максудов П.Х., Маннонов Ж.М. Использование метода "ассесмент" при предварительной оценке знаний студентов // Высшая школа. – Москва, 2015. № 9. – С. 52–55.
8. Муслимов Н., Абдуллаева Қ.М., Касбий компетентликни шакллантириш технологиялари. Монография. – Т.: "Фан ва технологиялар" нашриёти, 2011. – 252 б.
9. Сергеев И.С. Основы педагогической деятельности. – М.: Владос, 2004. – 193 с.
10. Толипова Ж.Р. Педагогик квалиметрия. – Т.: ТДПУ, 2016. – 79 б.
11. Hutmacher W. Key Competencies for Europe // Report of the Symposium Bern, Switzerland, 27–30 March 1996. Council for Cultural Co-operation (CDCC), Secondary Education for Europe. – Strasburg, 1997.
12. Толипова Ж.Р. Педагогик квалиметрия. – Т.: ТДПУ, 2016. – 79 б.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2025. №6

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.